

## TASAVVUF TA'LIMOTI TA'SIRIDA QORAQALPOQ XALQI IJTIMOIIY- MA'NAVİY HAYOTIDAGI TRANSFORMATSIYA JARAYONLARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8024603>

**Atamuratova Mirjaxan Jumanazarovna**

*Nukus DPI tayanch doktorant*

*matamuratova0875@gmail.com*

### **Annotatsiya.**

*Maqola tasavvuf ta'limotining qoraqalpoq xalqiga tarqalishi, uning ijtimoiy-ma'naviy hayotidagi transformatsiya jarayonlarining falsafiy tahliliga bag'ishlangan. Tarixiy va madaniy yodgorliklarni taqposlagan holda qoraqalpoqlarning ijtimoiy-madaniy, ma'naviy hayotida so'fiylik e'tiqodlarining mavjudligini isbotlaydilar.*

### **Kalit so'zlar.**

*islom, tasavvuf, qoraqalpoq, eshon, so'fiy, murid, tariqat, ma'naviy hayot, xonaqoh.*

Jahonda tasavvuf diniy-irfoniy ta'limoti islom dinining keng tarqalishida muhim rol o'ynagan. Undagi komil inson g'oyasi, yuksak ma'naviy fazilatlarni shakllantirish yo'llarini ko'rsatuvchi diniy-axloqiy me'yorlar insonlarni ezgulikka undab kelgan. Islomning jahon sivilizatsiyasiga munosib hissa qo'shgan insonparvar din sifatida tarqalishi tasavvuf ta'limoti bilan bog'liq.

Mustaqillik yillarida muqaddas islom dinining keng taraqqiy etishi, hamda uning zamirida paydo bo'lgan tasavvuf ta'limotining ilg'or g'oyalarini o'rganish yo'lga qo'yildi.

Tasavvuf ta'limoti Sharq va G'arb islomshunos olimlarining diqqatini o'ziga jalg etdi. Natijada, mahalliy va xorijiy olimlardan - Tor Andre, A. Arberry, O. F. Akimushkin, A. Knish, L.Massignon, A.V.Smirnov, E. A. Torchinov, J. Trimming, A. Xismatulin, A. Shimmel, V.Jukovskiy, M.Nikolson, I.Ivanov, Ye.E.Bertels, S. Nafisiy, Q.G'ani, K.Olimov, A.Muhammadxojayev, N.Komilov, O.Usmon, R.Shodiyev, I.Haqqul va boshqalar tomonidan bir qator tadqiqotlar amalga oshirildi.

Tasavvuf ta'limotining Qoraqalpog'iston xududida tarqalishi kam o'rganilgan mavzu hisoblanadi. Tarixchi olimlar P.Ivanov, S.Kamalov, G.Xojaniyozov, M.Tlewmuratov, O.Yusupov, J.Xakimniyazov, M. Karlibayev va boshqalar Qoraqalpoq xalqining qadimgi, o'rta asr va yangi davrdagi tarixi, muqaddas qadamjolar haqida, ijtimoiy-siyosiy, va ma'naviy turmushi haqida ma'lumotlar

bergan. XVIII-XX asrlarda qoraqalpoqlarning ijtimoiy va madaniy hayotidagi islom dinining o'rni haqidagi ilmiy tadqiqotlar olim M.Karlibayev tomonidan olib borilgan. Ammo, bu davrdan keyingi davrlarda qoraqalpoqlarning ijtimoiy va madaniy hayotidagi islom dinining, tasavvuf ta'limotining o'rni haqida ilmiy nuqtai nazardan chuqur o'rganilmagan, bu holat shu yo'naliishda ilmiy tadqiqotlar olib borishni taqoza etadi.

Tasavvufning paydo bo'lish tarixi va rivojlanishi kabi masalalarga tadqiqotchilar turlisha yondoshgan. Ayrim G'arb, rus tadqiqotchilari tasavvufni islom uchun begona, boshqa mistik oqimlar ta'sirida islomga kirib kelgan deb hisoblashgan. Nemis protestant dinshunos olimi F.A.Toluk dastlab tasavvufni zardushtiylikning merosi deb hisoblagan, keyinchalik bunday isbotlanmagan taxmindan voz kechib tasavvuf ildizlarini islom dini paydo bo'lgan davrdan boshlanganini tan oladi.

Islom ensiklopediyasida tasavvuf-so'fiylik islom dini bilan bir vaqtida paydo bo'lgan deyiladi. Biroq islomdagi mistik oqim VIII asrning o'rtalari IX asrning boshlarida shakllana boshlagan deyish to'g'ri bo'ladi [6.320].

Falsafiy qomusiy lug'atda tasavvuf ta'limoti islomda VIII asrda hozirgi Iroq, Eron, Suriya hududlarida vujudga kelgan mistik oqim sifatida tarifланади [4.664.]. "Tasavvuf, bu-islom doirasidagi maxsus mistik, diniy falsafiy dunyoqarash bo'lib, uning vakillari shaxsiy ruhiy tajriba orqali odamning Olloh bilan ruhan muloqoti (Ollohga yetishish va unga singib ketish) mumkin deb hisoblaydilar. Bunga dilida Ollohga muhabbat bilan, ilohiy yo'lida boradigan kishi erishadi" [11.480].

Tasavvufga tarixiy-falsafiy tahlilni M.Stepanyans quyidagicha ta'riflaydi: "Tasavvuf ma'lum darajada tanlangan kishilar elitar tafakkuri mahsuli va bir vaqtning u'zida "xalq" dini edi. U xukimron siyosiy tizimga qarshi ijtimoiy narozilik shakli va unga fatvo beruvchi rasmiy diniy doktrina bo'lib xizmat qilgan, lekin undan dindorlarni tinchlantirish, ularning ma'naviy va ijtimoiy faolligini so'ndirish uchun ham foydalanilgan" [10.192].

Tasavvuf ta'limoti paydo bo'lgan daslabki davrlarda "at-tasavvuf" va "as-sufiy" iboralari keng tarqalmagan. Ularning orniga nafsn iyi shiga intilganlarni "zohid", ibodatga ko'proq etibor beradiganlarni ifodalaydigan "obid" kabi so'zlardan foydalangan. Lekin aynan islomdagi shu diniy zohidlik oqimining ilk vakillari tasavvuf ta'limotiga asos solgan. "Tasavvuf" atamasi (arab. "tasavvuf") "suf" - "jun", "qo'pol jun kiyim" (arab.- suf-tasavvuf so'zidan olingan zot "jun kiyim kiyish"), "so'fiy bo'lmoq, so'fiylik" atamasidan kelib chiqqan [9.23].

Movarunnahrga islom dinining tarqalishi VII asr oxiri - VIII asr boshlariga to'g'ri keladi. Tasavvuf - so'fiylik ta'limoti islom dini negizida dastlab VII-VIII

asrlarda arab davlatlarida paydo bo'ldi. XI asrlarda esa Movarunnahr (O'rta Osiyo), musulmon davlatlari xalqlari hayotida keng yoyildi. Unda falsafiy - axloqiy, ijtimoiy -siyosiy qarashlar va g'oyalar mujassamlashgan. So'fiylikning mintaqada keng tarqalishida Xoja Ahmad Yassawiy, Bahauddin Naqshbandiy, Najmuddin Kubro tariqatlarining roli katta.

Qoraqalpoqlar tomonidan islom dinining qabul qilinishiga oid manbalar kamliги sababli hali ilimiyl jihatdan to'liq o'rganilmagan. Bunday holda, arxeologik ma'lumotlar diniy ko'rsatmalarga muvofiq dafn marosimining o'zgarishi xolis guvohlik berishi mumkin bo'lgan ishonchli manbalarga aylanadi. Zardushtiyarning marhumlarni dafn etish an'analari VIII asrning ikkinchi yarmidan boshlab musulmonlarning dafn etish an'analari almashtirilgan. Keyingi asrga kelib, Amudaryoning quyi oqimidagi barcha aholi musulmonlarning dafn etish an'analari amal qila boshlaydi, bu esa butun aholining bo'lmasa ham, hech bo'limganda asosiy qismining islomlashganidan dalolat beradi. Arxeologik ma'lumotlarga ko'ra, islomlashuv bu erlarda IX-X asrlarga tog'ri keladi[1.91].

So'fiylik qarashlari Orolbo'yi, Sirdaryo va Amudaryoning quyi oqimida Xoja Ahmad Yassaviy, Sulaymon Boqirg'oniy kabi musulmon olamining buyuk arboblari ta'sirida rivojlandi. Shayxning hikmatlari turkiy xalqlar orasida juda mashhur bo'lib, ular bilan birga uning tasavvuf ta'limoti ham tarqaladi. "Makkada-Muhammad, Turkistonda-Xo'ja Ahmad" iborasi bu shaxsning turkiy xalqlar diniy ongidagi mashhurligini ko'rsatadi.

XVIII asrga kelib tasavvuf ta'limoti qoraqalpoqlarning ma'naviy madaniyatiga ham ma'lum darajada ta'sir ko'rsatgan.

Qoraqalpoqlar yoshligidanoq eski maktablarda o'qigan, bu yerda ta'lim arab yozuvi va alifbosiga asoslangan. Bu maktablarda diniy fanlar bilan birga dunyoviy fanlar ham o'rgatilgan. Maktablarda bolalar "Shar kitobni", Xoja Ahmad Yassaviy, Sulaymon Boqirg'oniy, So'fi Olloyor, Navoiy, Mashrab va boshqalarning asarlarini o'rgangan.

Tasavvuf adabiyoti ta'sirlarini qoraqalpoq klassik adabiyotining yirik namayondalari Kunxo'ja, Ajiniyoz, Berdaq shoirlarning asarlaridan ko'rishimiz mumkin. Masalan: Kunxo'ja Ibrohim og'li (1799-1880)ning she'riyati rivojiga Yassaviy maktabidan chiqqan, uning shogirdlaridan biri sanalgan Maqtimquli ijodi katta ta'sir ko'rsatdi.

Maqtimquli va Kunxo'ja badiiy asarlarida uchrashadigan nasixat aytish va barcha insonlarni haq yo'liga chaqiruvchi usul dastlabki marta Yassaviy hikmatlarida qo'llanilgan.

Qoraqalpoq xalqining shoir mutafakkuri Ajiniyoz Qosiboy og'li (1821-1878) ijodiga ham tasavvuf ta'limotining ta'siri bo'lgan. U o'z asarlarida shariat tartiblarini, musulmonchilikning farzlarini, vijdon, or-nomus, ma'naviy poklik masalalariga bog'liqlikda ta'riflaydi. Ajiniyoz shoir o'z asarlarida pok vijdonli iymonga boy komil inson g'oyasini bosh o'ringa qo'yadi. Komil inson darajasiga faqatgina sodiq muhabbat yo'li bilan erishish mumkin, ya'ni poklikka, halollikka, sodiqlikka ma'naviy boylikka intilishgina insonni yetuklikka yetaklaydi, haq diydoriga yaqinlashtiradi. Shoirning "Bir janon", "Ey nozalimlar", "Bir pariy", "Sawdigim" "Go'zallar" [2.113] va boshqa qator oshiqlik she'rlarini sufiylik ta'limotining asosiy yo'naliishlarini, sufiylik she'riyatning badiiy an'anasini hisobga olib yozganligini ko'ramiz. She'rda dunyoviy ishq emas, balki ilohiy ishq aytildi.

Qoraqalpoq shoiri Berdoq G'arg'aboy o'g'li (1827-1900)ning ko'pchilik asarlaridagi she'r qatorlarining ma'nosida Xo'ja Axmad Yassaviy hikmatlariga o'qshashlik mavjud. Masalan: Berdoqning "Izlar edim" she'rida birlamchi yaratuvchi Xudo deb hisoblaydi. Dunyodagi barcha narsani yerni, butun cheksiz olamni, osmonni, kengliklarni Xudo taolo yaratgan. Bu haqda Berdoq "yerni, ko'kni haq aylagan Xudoyim" deydi[3.220]. Berdoq ba'zi so'fiy shoirlarga o'qshab tarki dunyochilik, ya'ni bu dunyoning muammolaridan butunlay voz kechib, o'zini faqat u dunyoga butunlay bag'ishlash kerakligi g'oyasi hamda amaliyotiga berilmaydi. Berdaq dunyoning o'tkinchi ekanligini aytish bilan birga, u Naqshbandiya tariqatidan Bahouddin Naqshbandiyning "ko'ngling allohda, qo'ling, mehnatda bo'lzin" omilini o'zi uchun bosh qoida sifatida qabul qilgan.

Berdoq "Yaxshiroq" she'rida "Tizzangni og'ritip mehnatin korib, yegan bitta noning boldan yaqshiroq" misralarida naqshbandiya g'oyalari o'z aksini topgan. Berdaq Naqshband talimo'tini o'rganar ekan, buyuk allomalar Shayx Mansur Halladj, Abu Hamid G'azzoliy, Rumi, Ibn Arabiy asarlari bilan ham tanishadi.

Kubraviya tariqati asoschisi Najmuddin Kubroning insonning komillikka erishish zarurligi, pok hamda go'zal tuyg'ularga ega bo'lishi kerakligi, ma'naviy paslikdan, nafs balosidan yiroq turishi kerakligi haqidagi fikrlarini boshchilikka olgan Berdoqning komil inson haqidagi g'oyalari deyarli barcha asarlarida, xususan, "Amangeldi", "Ernazar biy"da poemalarida, "El uchun", "Yaqshiroq", "Menga kerak", "Bolam" she'rlarida o'z ifodasini topgan.

Tasavvuf ta'limoti qoraqalpoqlarning ijtimoiy ma'naviy hayotiga kirib kelishi bilan moddiy madaniyatida ham o'z ko'rinishini topdi. Markaziy Osiyoda sufiylikning shakllanib, rivojlanishi bilan bog'liq qurilgan imoratlarga xanoqohlar kiradi. Ularni xalq orasida "qalandarxona" deb ham atashadi.

Xonaqoh-fors-tojikcha so'z bo'lib, asli so'fiylarning maskani va panohi ma'nosini bildirgan va keyinchalik darveshlar, qalandarlar, g'ariblar istiqomat qiluvchi jo'ylar ma'nosini bildira boshlagan. Xanoqohlar O'rta Osiyoda maxsus bino tarzida X asrda vujudga kelib ommaviyashib boshlagan [8.112].

So'fiylar xonaqohlarda yashash, o'z tariqatini aholiga tarqatish bilan birga ustozlik xizmati bilan ham shug'ullangan. Ustoz Shayx vafotidan keyin o'zlari yashab xizmat qilgan xonaqohlarga dafn etilgan. Shunday qilib pir ustoz, ulug' shayx va xo'jalarning qabrлari atrofida muqaddas qadamjolar, ziyorat qilish joylari paydo bo'la boshlagan.

Ana shunday xonaqohlar Qoraqalpog'istonning Xo'jayli tumanida joylashangan Misdakhan kompleksidan ham topilgan, XII-XIII asrlarda u xonaqoh sifatida qurilgan, keyin XIV asrga kelganda uning xonasiga islom dining ulug' piri dafn etilib, mahbaraga aylantirilgan [12.47]

XI-XIII asrlarda islom dunyosida tasavvufning barqarorlashuvi, XII asrdan boshlab O'rto Osiyoda tasavvuf tariqatlarning vujudga kelishi natijasida xonaqoh binolarining tomlari gumbazlar bilan yopilgan. Bu davrlarda Qoraqalpog'iston xududidagi muqaddas joylar bo'lган Sulton Ways Bobo(Beruniy), Shibliy shayx(Kegayli), Hokim ota Sulaymon Baqirg'oniy(Qo'ng'iroq) qabrлari ustida ham shunday qurilishlar tiklanadi.

XVIII-asrda qoraqalpoqlarning diniy-ijtimoiy hayotida so'fiylik vakillarining kuchli ta'siri bo'lgan. Sababi, shu davrda qoraqalpoqlar orasida Xiva va Buxorodagi madrasalarni bitirgan diniy ulamolar(eshon)ning obro'si baland bo'lgan. Bu davrda eshonlar Qoraqalpog'istonning ko'pgina aholi punktlarida yashab, ularning asosiy faoliyati islom dinini tarqatishdan iborat edi.

XIX-asr boshlari va o'rtalarida ham qoraqalpoqlar orasida eshonlarning roli kuchaygan, ular islom dinining asosiy targ'ibotchilar bo'lgan. Chunki, islom dinining qoraqalpoqlarga tarqalishi ko'pincha so'fiy ruhoniylari orqali amalga oshirilgan. Har bir kishi ma'lum bir eshonning muridi bo'lishga majbur bo'lgan. Mashhur eshonlarning muridiga aylanish sharaflı sanalgan. Eshonlar xalq o'rtasidagi ko'plab ijtimoiy muammolarni hal qilishda asosiy rol o'ynagan. Bu holat tasavvuf vakillari - eshonlarning nufuzi juda katta bo'lishiga olib keldi.

Qoraqalpoq diniy ulamolarining barchasi Naqshbandiya tariqatida bo'lgan. Ulardan Imom eshon, Qoraqum eshon, Qurbannazar axun, Jontemir eshon, Suyin eshon, Xaliulloh eshon, Nog'ay eshon va boshqa ulamolarni misol qilib keltirish mumkin. Buxaro, Xiva, Eron, Yaqin Sharq madrasalarida o'qib, chuqur bilim olib kelgan qoraqalpoq ulamolari musulmon ilmiga asoslangan o'zlarining maktablarini, madrasalarini qurdi. Amudaryoning ong tarafidagi qoraqalpoqlar

orasida 114 eshon yashaganligi manbalarda qayd etilgan[5.54]. Qoraqalpog'istondag'i ikkita madrasa XX-asr boshlariga qadar adabiyotlarda ko'p tilga olingan. Bular Qoraqalpog'iston Respublikasi Amudaryo tumanidagi Tosh madrasa va Bo'zatov tumani hududidagi Qoraqum eshon madrasasi [7.30].

Xulosa qilib aytganda, islom dinining Markaziy Osiyo mintaqasida jumladan, Janubiy orol boylariga tarqalishida tasavvuf ta'limotining roli katta. Tasavvuf ta'limoti qoraqalpoqlarning ijtimoiy, moddiy va ma'naviy hayotiga, kundalik turmushiga sezilarli ta'sir ko'rsatti va transformatsiya jarayonlarini tezlashtirdi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Амиров Ш. // Ўзбекистон археологияси мустакиллик йилларида: ютуклар ва истиқболлар/. Ўзбекистон Республикаси Мустақиллигининг 25 йиллигига бағишланған Халқаро илимий конференция материаллари. Самарқанд, 2016.-90-93с.
2. Ажиниёз. Танланган асарлар. Н.: "Қарақалпогистон". 1994. ..-113с
3. Бердақ. Танланган асарлар. Н.: "Қарақалпогистон". 1997.-220с
4. Философский энциклопедический словарь. М.: 1983, - 6641с
5. Идирисов А. Қарақум ийшанлар тарийхы. Н.: 2023. "Қарақалпақстан". -54с
6. Карл.Э. Суфизм. М.: 2002-320 с.
7. Карлибаев М. Медресе в Каракалпакии XIX - начала XX веков. Н.: 2002.-30
8. Манковская L.Yu. Типологические основы зодчества Средней Азии.(ИХ- и начало XX в )-Т.:1980.-112с
9. Петрушевский И. П. Ислам в Иране VII – XV вв. Л.: 1969
10. Степанянц М.Т. Философские аспекты суфизма. М.: 1987
11. Тримингем Дж. "Суфийские ордены в исламе"М.: 2002.,-480
12. Хожаниязов.Г., Юсупов.О. Қарақалпакстандагы муқаддес орынлар. Н.: 1994. -47с
13. Pirnazarov, Nurnazar; Utebaev, Madiyar; ,Methods and forms of greetings,Scientific enquiry in the contemporary world: theoretical basics and innovative approach [L 26],,,2016,
14. Пирназаров, НР; Баймурзаев, Азамат; ,ФИЛОСОФСКОЕ МИРОВОЗРЕНИЕ-ЛОГИЧЕСКАЯ ОСНОВА ДУХОВНОСТИ,Ученый XXI века,,36,2017,

15. Nurnazar, P; , "Ecology of the Soul: Culture, Morality, Spirituality", Indiana Journal of Agriculture and Life Sciences, 2,2,5-8,2022,

16. Ploypailin Sriwiset, Pirnazarov Nurnazar; , The Protection of Patents on Animal-related Inventions: Thailand's Problems and Solutions, Res Militaris, 12,1,73-85,2022,